

ARAB TILI GRAMMATIKASIDA HOLAT FE'LLARINING ZAMONAVIY TIL MATERIALLARIDA QO'LLANISHI

Komilova Xadichabonu Behzod qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Arabshunoslik oliy maktabi 1-bosqich magistranti

kamilovaxadicha65@gmail.com

+998994822106

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili grammatikasida holat fe'llarining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks yoritishga qaratiladi. Holat fe'llari arab tilida faqatgina fe'ling shakliy turi sifatida emas, balki chuqur semantik va funksional yuklamaga ega bo'lgan grammatik birlik sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari holat fe'llarining zamonaviy matnlarda baholash, muallif pozitsiyasini ifodalash, diskursni mantiqan bog'lash va hissiy-ekspressiv ta'sir ko'rsatish kabi funksiyalarni bajarish muvofiqligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: holat fe'llari, semantik-aspektual xususiyatlar, kognitiv tilshunoslik, semantik yadro.

الملخص:

تهدف هذه المقالة إلى تقديم عرض شامل للجوانب النظرية والتطبيقية لأفعال الحال في قواعد اللغة العربية. وتبين الدراسة أن أفعال الحال في العربية لا تقتصر على كونها نمطاً صرفياً للفعل فحسب، بل تتجلى بوصفها وتؤكد نتائج البحث أن أفعال الحال في النصوص المعاصرة وحدات نحوية ذات حمولة دلالية ووظيفية عميقة تؤدي وظائف متعددة، من بينها التقويم، والتعبير عن موقف المؤلف، والربط المنطقي للخطاب، وإحداث تأثير انفعالي تعبيرية.

الكلمات المفتاحية:

الجانبية، اللسانيات المعرفية، النواة الدلالية-أفعال الحال، الخصائص الدلالية.

Аннотация: В данной статье предпринимается комплексное освещение теоретических и практических аспектов глаголов состояния в грамматике арабского языка. Показано, что глаголы состояния в арабском языке выступают не только как формальный тип глагола, но и как грамматические единицы, обладающие глубокой семантической и функциональной нагрузкой. Результаты исследования подтверждают, что глаголы состояния в современных текстах выполняют такие функции, как оценивание, выражение авторской позиции, логическое связывание дискурса и создание эмоционально-экспрессивного воздействия.

Ключевые слова: глаголы состояния, семантико-аспектуальные характеристики, когнитивная лингвистика, семантическое ядро.

Abstract: This article aims to provide a comprehensive overview of the theoretical and practical aspects of state verbs in Arabic grammar. It demonstrates that state verbs in Arabic function not merely as formal verb types, but as grammatical units

endowed with profound semantic and functional load. The findings of the study confirm that state verbs in contemporary texts perform a range of functions, including evaluation, the expression of the author's stance, logical discourse cohesion, and the creation of emotive and expressive effects.

Keywords: *state verbs, semantic-aspectual features, cognitive linguistics, semantic core.*

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida tabiiy tillarning grammatik tizimini chuqur va kompleks o'rganish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, arab tilining boy grammatik qurilishi, fe'l kategoriyasining murakkab semantik va funksional imkoniyatlari tilshunos olimlar e'tiborini doimiy ravishda o'ziga tortib kelmoqda.

Arab tilida fe'l faqatgina harakatni ifodalovchi vosita bo'lib qolmay, balki subyektning ichki holati, ruhiy kechinmalari, bilim va hissiy munosabatlari, barqaror va davomiy vaziyatlarini ifodalovchi muhim grammatik birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, arab tili grammatikasida holat fe'llari masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy arab grammatikasi doirasida fe'llar ko'proq shakliy va zamoniy mezonlar asosida tasniflangan bo'lsa-da, semantik jihatdan ularning harakat va holatni ifodalash xususiyatlari ham qadimdan e'tibordan chetda qolmagan. Biroq klassik manbalarda holat fe'llari ko'pincha alohida mustaqil kategoriya sifatida emas, balki umumiy fe'l tizimi doirasida izohlangan. Zamonaviy tilshunoslikda esa fe'llarning semantik-aspektual xususiyatlarini chuqur o'rganish natijasida holat fe'llari mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Bu holat arab tilining hozirgi adabiy shakli, ommaviy axborot vositalari tili, ilmiy va publitsistik matnlar tahlilida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy arab tilida holat fe'llari subyektning vaqtinchalik harakatini emas, balki uning nisbatan barqaror, davomiy yoki ichki holatini ifodalash orqali nutq mazmunining semantik chuqurligini ta'minlaydi. Bunday fe'llar orqali bilim, e'tiqod, muhabbat, nafrat, xabardorlik, tushunish kabi tushunchalar ifodalanib, gapning pragmatik yukini kuchaytiradi. Shu sababli holat fe'llarini faqat grammatik birlik sifatida emas, balki semantik va diskursiv vosita sifatida ham tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

So'nggi yillarda arab tilshunosligida, xususan, funksional grammatika, kognitiv tilshunoslik va diskurs tahlili doirasida fe'llarning holatni ifodalash xususiyatlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Biroq shunga qaramay, arab tilida holat fe'llarining zamonaviy til materiallaridagi real qo'llanishi, ularning semantik-pragmatik imkoniyatlari, zamon va aspekt kategoriyalari bilan munosabati yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ushbu masala o'zbek arabshunosligida fragmentar tarzda yoritilgan bo'lib, kompleks va monografik tadqiqotlar soni cheklangan.

Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan bo'lib, unda arab tili grammatikasida holat fe'llarining nazariy asoslari, klassik va zamonaviy manbalardagi talqini hamda hozirgi adabiy arab tili materiallari asosida ularning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida klassik grammatika manbalari bilan bir qatorda zamonaviy lingvistik qarashlar, real matn namunalariga tayangan holda fe'llarning holatni ifodalashdagi funksional imkoniyatlari ochib beriladi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, holat fe'llarining zamonaviy arab tilidagi faol ishlatilishi til tizimida semantika va grammatika o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. Bu esa nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy jihatdan arab tilini o'qitish, tarjima jarayonlari va matn tahlili uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida dissertatsiya ishining asosiy boblaridan biri sifatida kengaytirilib, yanada chuqur ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

ASOSIY QISM. Holat fe'llari tushunchasi va grammatik mohiyati

Arab tili grammatik tizimida fe'l kategoriyasi nafaqat morfologik va sintaktik jihatdan, balki chuqur semantik mazmuni bilan ham ajralib turadi. Fe'l orqali ifodalanadigan ma'no doirasi harakatning sodir bo'lishi bilan cheklanib qolmay, balki subyektning ichki holati, ruhiy kechinmalari, bilish jarayoni, hissiy munosabati va barqaror vaziyatlarini ham qamrab oladi. Ana shu jihatdan, arab tilshunosligida holat fe'llari (الأفعال الدالة على الحال) tushunchasi muhim ilmiy kategoriya sifatida qaraladi.

Holat fe'llari, avvalo, dinamik harakatni emas, balki subyektning ma'lum bir vaqt oraliq'ida davom etuvchi yoki nisbatan barqaror holatini ifodalashi bilan xarakterlanadi. Bunday fe'llar orqali harakatning boshlanishi yoki yakunlanishi emas, balki holatning mavjudligi va davomiyligi asosiy semantik yadroni tashkil etadi. Masalan, bilish, tushunish, sevish, ishonish, xabardor bo'lish kabi ma'nolar holat fe'llariga xos bo'lib, ular harakat fe'llaridan semantik jihatdan keskin farqlanadi.

Klassik arab grammatikasida holat fe'llari alohida terminologik birlik sifatida qat'iy shakllanmagan bo'lsa-da, ularning semantik mohiyati yetuk grammatiklar tomonidan aniq sezilgan va izohlangan. Xususan, Sibavayh fe'llarni tahlil qilish jarayonida ayrim fe'llarning harakatdan ko'ra holatni ifodalashini qayd etib, ularni davomiylilik va barqarorlik belgisi bilan tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, bunday fe'llar zamon shakliga ega bo'lsa-da, ular orqali ifodalangan mazmun vaqt bilan cheklanib qolmaydi, balki holatning doimiyligini aks ettiradi.

Masalan:

عَلِمَ زَيْدٌ الْحَقَّ

(Zayd haqiqatni bildi)

Mazkur jumlada 'alima fe'li tashqi harakatni emas, balki subyektning bilim holatiga ega bo'lganini bildiradi. Bu bilim holati esa vaqtinchalik emas, balki barqaror semantik xususiyat sifatida talqin qilinadi.

Holat fe'llarining grammatik mohiyatini ochishda ularning aspektual xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikda bu fe'llar ko'pincha statik (stative) fe'llar sifatida tavsiflanib, ular harakat fe'llariga xos bo'lgan dinamiklik, bosqichma-bosqichlik va natijaviylik belgilaridan xoli ekanligi qayd etiladi. Arab tilida holat fe'llari ko'pincha natijani emas, balki holatning mavjudligini ifodalaydi, bu esa ularni aspektual jihatdan o'ziga xos qiladi.

Bundan tashqari, holat fe'llari bilan zamon kategoriyasi o'rtasidagi munosabat ham alohida e'tiborga loyiq. Ushbu fe'llar ko'pincha hozirgi zamon shaklida kelib, zamonsizlik yoki umumiylik ma'nosini ifodalaydi.

Masalan:

أَحْبُ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ

(Men arab tilini yaxshi ko'raman)

Bu jumlada fe'l hozirgi zamonda bo'lsa-da, aniq bir vaqt kesimini emas, balki subyektning doimiy holatini ifodalaydi. Shu sababli holat fe'llarida zamon shakli bilan semantik mazmun o'rtasida muayyan nomutanosiblik kuzatiladi.

Holat fe'llarining grammatik mohiyati, shuningdek, ularning ismiy predikatsiya bilan yaqin munosabatida ham namoyon bo'ladi. Ko'pincha holat fe'llari orqali ifodalangan mazmun sifat yoki ism orqali ham ifodalanishi mumkin. Biroq fe'l shakli nutqqa dinamiklik va subyektivlik unsurlarini olib kiradi. Bu holat zamonaviy arab matnlarida fe'l va ism o'rtasidagi funksional raqobatni yuzaga keltiradi.

Holat fe'llari arab tili grammatikasida harakat fe'llaridan semantik, aspektual va funksional jihatdan farqlanuvchi mustaqil fe'l turini tashkil etadi. Ularning grammatik mohiyati subyektning ichki holatini, davomiy vaziyatini va barqaror xususiyatlarini ifodalashga qaratilgan bo'lib, bu xususiyatlar zamonaviy arab tilida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu fe'llarning chuqur tahlili arab tili grammatik tizimida semantika va grammatika o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Klassik manbalarda holat fe'llarining talqini

Klassik arab grammatikasi an'anasida holat fe'llari masalasi alohida mustaqil bob sifatida emas, balki sarf va nahv ilmlari kesishgan nuqtada, fe'lning mazmuniy va funksional xususiyatlarini izohlash jarayonida yoritilgan. Qadimgi arab grammatiklari fe'llarni shakliy va sintaktik jihatdan mukammal tasniflagan bo'lsalar-da, ularning semantik tabiatiga ham befarq bo'lmaganlar. Ayniqsa, fe'l orqali ifodalanadigan harakat va holat o'rtasidagi farq klassik manbalarda muhim nazariy masala sifatida qaraladi.

Mazkur masalada Ibn Hishomning "Mughnī al-Labīb 'an Kutub al-Aā'rīb" asari alohida ahamiyatga ega. Olim ushbu asarida fe'llarni faqatgina zamon va amal nuqtayi nazaridan emas, balki ularning mazmuniy barqarorligi va davomiylik xususiyati asosida ham tahlil qiladi. Ibn Hishamga ko'ra, ayrim fe'llar subyekt tomonidan bajariladigan harakatni emas, balki uning nisbatan o'zgarmas, doimiy holatini

ifodalaydi va bunday fe'llar thubūt (ثبوت) – ya'ni barqarorlik belgisi bilan tavsiflanadi².

Quyidagi jumla klassik manbalarda tez-tez uchraydigan holat fe'llariga xos misollardan biridir:

زَيْدٌ يَعْلَمُ الْحَقَّ

(Zayd haqiqatni biladi)

Mazkur jumlada ya'lamu fe'li grammatik jihatdan hozirgi zamon (al-fi'l al-muḍāri') shaklida kelgan bo'lsa-da, u aniq bir vaqt momentida sodir bo'layotgan harakatni ifodalamaydi. Aksincha, fe'l subyektning bilim holatini, ya'ni haqiqatdan xabardor bo'lish kabi barqaror va davomiy vaziyatni anglatadi. Shu sababli bu yerda zamon shakli bilan fe'lning semantik mazmuni o'rtasida to'liq moslik mavjud emas.

Klassik arab grammatikasida aynan mana shu holat fe'llarining muhim belgisi sifatida baholanadi. Ya'ni, fe'l tashqi jihatdan zamon kategoriyasiga bo'ysunsa-da, uning ichki semantik yadrosi zamondan nisbatan mustaqil bo'ladi. Bu holat klassik nahvchilar tomonidan ochiq terminlar bilan ifodalanmagan bo'lsa-da, ularning izohlarida aniq seziladi. Ayniqsa, ilm, idrok, e'tiqod, muhabbat va nafrat kabi ma'nolarni bildiruvchi fe'llar shu turkumga mansub deb qaraladi.

Klassik manbalarda holat fe'llarining yana bir muhim jihati shundaki, ular ko'pincha ismiy xabar (xabar ismiy) bilan ma'nodosh bo'lishi mumkin. Masalan, Zayd bilimlidir mazmuni ham fe'l, ham ismiy konstruktsiya orqali ifodalanishi mumkin. Biroq fe'l shakli tanlanganida nutqqa ma'lum darajada subyektivlik va faol pozitsiya kiradi. Bu esa klassik arab tilida fe'l va ism o'rtasidagi nozik semantik farqlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Klassik arab grammatikasida holat fe'llari masalasi to'liq tizimlashtirilmagan bo'lsa-da, yetuk grammatiklar tomonidan ularning asosiy semantik belgisi – barqarorlik va davomiylik aniq ilg'ab olingan. Aynan shu nazariy qarashlar zamonaviy arab tilshunosligida holat fe'llarini mustaqil semantik-fe'l guruhi sifatida talqin qilish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda holat fe'llari muammosi

Zamonaviy tilshunoslikda fe'lning semantik tabiatini o'rganish masalasi an'anaviy morfologik va sintaktik yondashuv doirasidan chiqib, aspektual-semantik, kognitiv va diskursiv yo'nalishlar bilan boyidi. Ayniqsa, holat fe'llari (stative verbs) muammosi fe'l orqali ifodalanadigan ma'no va zamon-aspekt munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Arab tilida bu masala hozirgi adabiy til materiallari, ommaviy axborot vositalari va ilmiy matnlar tahlili asosida yanada dolzarb tus oldi.

Zamonaviy tilshunoslikda holat fe'llari, avvalo, dinamiklikning yo'qligi va davomiylikning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Bu fe'llar orqali ifodalanagan holat subyekt tomonidan amalga oshiriladigan harakat sifatida emas, balki uning ichki kognitiv yoki hissiy vaziyati sifatida talqin qilinadi. Shu sababli holat fe'llari ko'pincha aspektual jihatdan statik (non-dynamic) fe'llar sifatida qaraladi va ular

harakat fe'llariga xos bo'lgan bosqichlilik, yakunlanish (teliklik) yoki natijaviylik belgilarini namoyon etmaydi.

G'arbiy arabshunoslikda bu masala fe'l-aspekt nazariyasi doirasida keng tahlil qilingan. Xususan, A Grammar of the Arabic Language asarida holat fe'llari harakat fe'llaridan semantik va aspektual jihatdan ajratilib, ularning zamon shakllari bilan munosabati nisbiy ekanligi ta'kidlanadi³. Ushbu yondashuvga ko'ra, holat fe'llarida zamon shakli grammatik zarurat sifatida mavjud bo'lsa-da, fe'lning semantik yadrosi vaqt bilan qat'iy chegaralanmaydi.

Zamonaviy arab tilshunosligida holat fe'llari muammosining murakkabligi, avvalo, zamon va aspekt kategoriyalarining to'liq mos kelmasligi bilan izohlanadi. Masalan, hozirgi zamon shaklida kelgan ko'plab holat fe'llari real nutqda umumiylik, doimiylik yoki odatiylik ma'nolarini ifodalaydi:

نَعْرِفُ أَنَّ الْعِلْمَ أَساسُ النَّفْعِ

(Biz bilamizki, ilm taraqqiyotning asosidir)

Bu jumlada na'rifu fe'li aniq bir nutq paytida yuz berayotgan harakatni emas, balki umumiy bilim holatini ifodalaydi. Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan bu holat fe'llarning atemporal (zamondan mustaqil) xususiyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, holat fe'llari zamonaviy matnlarda pragmatik yuklamani kuchaytiruvchi vosita sifatida ham faol qo'llaniladi. Publitsistik va ilmiy diskursda ular muallif pozitsiyasini, baholashni yoki subyektiv munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan holat fe'llari nafaqat grammatik birlik, balki diskursiv strategiya sifatida ham qaralmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda muhokama qilinayotgan yana bir muhim masala holat fe'llarining ismiy predikatsiya bilan raqobatidir. Arab tilida ko'plab holat ma'nolari sifat yoki ismiy konstruktsiyalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Biroq fe'l shaklining tanlanishi nutqqa dinamiklik, subyekt faolligi va muayyan kommunikativ urg'u olib kiradi. Bu holat zamonaviy grammatikada fe'l tanlovining pragmatik sabablarini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda holat fe'llari muammosi arab tilining fe'l tizimini faqat shakliy emas, balki semantik, aspektual va diskursiv jihatdan kompleks tahlil qilishni talab etadi. Holat fe'llari zamonaviy arab tilida faol va ko'p qirrali birlik sifatida namoyon bo'lib, ularning chuqur o'rganilishi fe'l kategoriyasining nazariy asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv keyinchalik dissertatsiya doirasida holat fe'llarining funksional va pragmatik xususiyatlarini yanada kengroq tadqiq etish uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratadi.

Holat fe'llarining zamonaviy matnlardagi funksional qo'llanishi

Zamonaviy arab tilida holat fe'llari grammatik birlik sifatida emas, balki nutqning semantik va pragmatik tuzilishini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida faol qo'llanilmoqda. Ularning zamonaviy matnlardagi funksional qo'llanishi, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, publitsistik, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy diskurslarda yaqqol

namoyon bo'ladi. Bu holat fe'llarining an'anaviy harakat fe'llaridan farqli ravishda kommunikativ yuklamani kuchaytirishdagi rolini ko'rsatadi.

Avvalo, holat fe'llari zamonaviy matnlarda bilim va xabardorlik holatini ifodalash funksiyasini bajaradi. Ilmiy va analitik matnlarda na'rifu (bilamiz), nara (ko'ramiz), nu'minu (ishonamiz) kabi fe'llar orqali muallif yoki nutq subyekti ma'lum bir axborotni umumiy, inkor etib bo'lmaydigan haqiqat sifatida taqdim etadi. Masalan:

نَعْلَمُ أَنَّ التَّغْيِيرَ لَا يَأْتِي بِسُهُوَةٍ

(Biz bilamizki, o'zgarish osonlik bilan kelmaydi)

Bu jumlada fe'l subyektning aniq bir vaqtdagi harakatini emas, balki umumiy ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan bilim holatini ifodalaydi. Shu orqali matnning ishonchliligi va mantiqiy og'irligi kuchaytiriladi.

Ikkinchidan, holat fe'llari zamonaviy publitsistik va siyosiy diskursda baholash va munosabat bildirish funksiyasini bajaradi. narfudu (rad etamiz), naqbal (qabul qilamiz), nakrahu (yoqtirmaymiz) kabi fe'llar orqali muallif pozitsiyasi ochiq yoki bilvosita tarzda ifodalanadi. Bu fe'llar orqali matnda subyektiv baho beriladi, biroq bu baho dinamik harakat sifatida emas, balki barqaror pozitsiya sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, holat fe'llari zamonaviy matnlarda diskursiv bog'lovchi vazifasini ham bajaradi. Ular matn qismlarini mantiqan bog'lab, sabab-oqibat, tushuntirish yoki umumlashtirish munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, nara anna (biz shuni ko'ramizki) konstruktsiyasi ko'pincha xulosa chiqarish yoki oldingi fikmi umumlashtirish uchun ishlatiladi. Bu holat fe'llarining diskurs tuzilishidagi funksional ahamiyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, zamonaviy arab matnlarida holat fe'llari hissiy-ekspressiv funksiyani ham bajaradi. Adabiy va publitsistik matnlarda nuhibbu (sevamiz), nakhshā (qo'rqamiz), nata'ammalu (umid qilamiz) kabi fe'llar orqali subyektning ichki holati va munosabati ifodalanadi. Bu fe'llar matnni hissiy jihatdan boyitib, o'quvchi yoki tinglovchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Holat fe'llarining yana bir muhim funksional xususiyati ularning ismiy predikatsiya bilan raqobatidir. Zamonaviy arab tilida ko'plab holat ma'nolari sifat yoki ismiy konstruktsiya orqali ham ifodalanishi mumkin. Biroq fe'l shaklining tanlanishi matnga faol pozitsiya, nutq subyektining ongli ishtiroki va muayyan kommunikativ urg'u olib kiradi. Shu sababli mualliflar ko'pincha fe'l shaklini tanlab, matnning pragmatik ta'sirini kuchaytirishga intiladilar.

Holat fe'llarining zamonaviy matnlardagi funksional qo'llanishi ularning arab tilida faqat grammatik birlik emas, balki semantik, pragmatik va diskursiv vosita sifatida muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Ular orqali bilim, munosabat, baho va ichki holat ifodalanib, matn mazmunining chuqurligi va ta'sirchanligi oshiriladi. Ushbu xususiyatlar holat fe'llarini zamonaviy arab tilining faol va dinamik komponentlaridan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi.



XULOSA. Mazkur tadqiqot arab tili grammatikasida holat fe'llarining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks yoritishga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, holat fe'llari arab tilida faqatgina fe'lning shakliiy turi sifatida emas, balki chuqur semantik va funksional yuklamaga ega bo'lgan grammatik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali subyektning tashqi harakati emas, balki ichki holati, bilish darajasi, hissiy munosabati va barqaror vaziyati ifodalanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, klassik arab grammatikasida holat fe'llari alohida mustaqil kategoriya sifatida nomlanmagan bo'lsa-da, yetuk grammatiklar tomonidan ularning asosiy semantik belgisi — davomiylik va barqarorlik (thubūt) aniq ilg'ab olingan. S arf va nahv ilmlari kesishmasida olib borilgan izohlar holat fe'llarining zamon shakliga bo'ysunsa-da, semantik yadrosi zamondan nisbatan mustaqil ekanini ko'rsatadi. Bu holat klassik grammatik tafakkurning yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan esa holat fe'llari fe'l–zamon–aspekt munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiluvchi murakkab birlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy arab tilida ular statik, atemporal va ko'pincha umumiylik ma'nosini ifodalovchi fe'llar sifatida faol qo'llanilib, ilmiy, publitsistik va ijtimoiy-siyosiy diskursda muhim pragmatik vazifani bajaradi. Bu holat fe'llarining funksional imkoniyatlari an'anaviy grammatik talqindan ancha keng ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari holat fe'llarining zamonaviy matnlarda baholash, muallif pozitsiyasini ifodalash, diskursni mantiqan bog'lash va hissiy-ekspressiv ta'sir ko'rsatish kabi funksiyalami bajarishini tasdiqladi. Fe'l shaklining tanlanishi ko'pincha ismiy predikatsiyaga nisbatan kuchliroq kommunikativ ta'sirga ega bo'lib, bu holat zamonaviy arab nutqining dinamik xususiyatlarini yoritib beradi.

Umuman olganda, holat fe'llari arab tili grammatik tizimida semantika va grammatika o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etuvchi muhim kategoriya hisoblanadi. Ularning klassik va zamonaviy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish arab tilidagi fe'l kategoriyasining rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot xulosalari kelgusida holat fe'llarining aspektual, pragmatik va diskursiv xususiyatlarini yanada kengroq o'rganish, shuningdek, ularni arab tilini o'qitish va tarjima jarayonlarida samarali qo'llash uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Klassik arab grammatikasi manbalari:

1. Sibavayh. Arab tilidagi fe'l tizimi, semantik farqlar va holat ifodalovchi fe'llarning dastlabki nazariy asoslari. Al-Kitāb. Qohira: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyya 2021



2. Ibn Hisham. Fe'llarning mazmuniy barqarorligi (thubūt), holat va harakat munosabatining klassik talqini. Mughnī al-Labīb 'an Kutub al-Aā'rīb. Bayrut: Dār al-Fikr, 1985.

3. Zamakhshariy. Fe'l va ismiy predikatsiya munosabatlari, nahviy tahlillar. Al-Mufaṣṣal fī Ṣan'at al-I'rāb. Bayrut: Dār al-Jīl, 1993.

4. Abdul Qahir Jurjoniy. Ma'no, kontekst va fe'ning semantik yuklamasi masalalari. Dal'ail al-I'jāz. Qohira: Maktabat al-Khānījī, 2001.

Zamonaviy arab va g'arb tilshunosligi manbalari:

5. Wright, W. A Grammar of the Arabic Language.(Arab tilidagi stativ (holat) fe'llar va zamon-aspekt munosabati)

Cambridge: Cambridge University Press, 1896.

6. Bernard Comrie. Aspect. (Aspektual semantika va statik fe'llar nazariyasi.) Cambridge: Cambridge University Press, 1976.

7. John Lyons. Semantics. Vol. 1–2.(Holat, davomiylik va zamonning semantik talqini.) Cambridge: Cambridge University Press, 1977.

8. Talmy Givón. Syntax: A Functional-Typological Introduction.(Funksional grammatika va fe'llarning diskursdagi roli.) Amsterdam: John Benjamins, 2001.

Zamonaviy arab tili va diskurs bo'yicha tadqiqotlar:

9. Holes, C. Modern Arabic: Structures, Functions, and Varieties.(Zamonaviy adabiy arab tilida fe'llarning funksional qo'llanishi.) Washington: Georgetown University Press, 2004.

10. Ryding, K. C. A Reference Grammar of Modern Standard Arabic.(Zamonaviy arab tilida fe'l, zamon va holat kategoriyalari.) Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

11. Badawi, E., Carter, M., Gully, A. Modern Written Arabic: A Comprehensive Grammar.(Ilmiy va publitsistik matnlarda fe'l tahlili.) London: Routledge, 2004.

O'zbek va rus tilshunosligi manbalari (qo'shimcha):

12. Mahmudov, N. Til va ma'no.(Semantika va grammatik birliklar munosabati.) Toshkent: Fan, 2008.

13. Маслов, Ю. С. Введение в языкознание.(Fe'l semantikasi va holat tushunchasi.) Москва: Высшая школа, 1998.